



UDK:81-119

Nilufar MUMINOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: muminoва_nilufar@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor X.Narxodjayeva taqrizi bilan

SOCIOLINGUISTIC FEATURES OF ANTHROPONYMY IN THE TIMURID ERA

Annotation

This article analyzes the anthroponymy of the Timurid era from a sociolinguistic perspective. It highlights the social, cultural, and religious significance of personal names, epithets, pseudonyms, and territorial identifiers characteristic of that period. Through anthroponyms, one can determine a person's social status, lineage, religious affiliation, and geographical identity, which are examined on the basis of concrete examples. Furthermore, the pragmatic and sociopragmatic functions of anthroponyms found in the literary and historical sources of the Timurid era are demonstrated. The article also discusses the influence of Persian, Arabic, and Turkic cultural integration on naming practices, the role of religious beliefs in name selection, and the impact of historical events on the naming process.

Key words: Timurid era, anthroponymy, sociolinguistics, name, epithet, pseudonym, territorial identifier, social status, religious belief, cultural identity.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМИИ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ

Аннотация

В данной статье антропонимия эпохи Темуридов рассматривается с социолингвистической точки зрения. Освещаются социальное, культурное и религиозное значение личных имён, эпитетов, тахаллусов и территориальных указателей, характерных для данного периода. Посредством антропонимов можно определить социальный статус человека, его родословную, религиозную принадлежность и географическую идентичность, что проанализировано на основе конкретных примеров. Кроме того, показаны прагматические и социопрагматические функции антропонимов, встречающихся в литературных и исторических источниках эпохи Темуридов. В статье также раскрывается влияние интеграции персидской, арабской и тюркской культур на систему имён, роль религиозных воззрений в выборе имён, а также воздействие исторических событий на процесс именования.

Ключевые слова: Эпоха Темуридов, антропонимия, социолингвистика, имя, эпитет, тахаллус, территориальный указатель, социальный статус, религиозная вера, культурная идентичность.

TEMURIYLAR DAVRI ANTROPONIMIYASINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Temuriylar davri antroponimiyasi sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Davrga oid shaxs ismlari, laqablar, taxalluslar va hududiy nisbatlarning ijtimoiy, madaniy hamda diniy kontekstdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Antroponimlar orqali shaxsning ijtimoiy mavqei, nasl-nasabga mansubligi, diniy e'tiqodi va hududiy identifikatsiyasi aniqlanishi misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Temuriylar davrining badiiy va tarixiy manbalarida uchraydigan antroponimlar pragmatik va sotsiopragmatik funksiyalarni namoyon etishi ko'rsatib beriladi. Maqolada fors, arab va turkiy madaniyatlar integratsiyasining ismlarga ta'siri, diniy qarashlarning nom tanlashdagi ahamiyati hamda tarixiy voqealarning nomlash jarayoniga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, antroponimiya, sotsiolingvistika, ism, laqab, taxallus, hududiy nisbat, ijtimoiy mavqe, diniy e'tiqod, madaniy identifikatsiya.

Kirish. Temuriylar davri (XIV–XVI asrlar) Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va harbiy jihatdan, balki madaniy, ilmiy va ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham muhim davr sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda Temuriylar davlatining shakllanishi, markazlashgan boshqaruv tizimi, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi shaxsiy nomlar, ya'ni antroponimlar mazmuniga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, Temuriylar davri antroponimiyasi nafaqat shaxsni identifikatsiya qilish vositasi sifatida, balki ijtimoiy mavqe, oilaviy kelib chiqish, diniy e'tiqod, etnik manba va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim sotsiopragmatik element sifatida shakllangan.

Antroponimlar, ya'ni shaxs ismlari, o'sha davr jamiyatida ijtimoiy stratifikatsiyani aniqlash, muloqot jarayonida shaxsning lavozimi va maqomini belgilash, shuningdek, madaniy va diniy identifikatsiya vositasi sifatida

keng qo'llanilgan. Masalan, biror shaxsning ismiga qo'yilgan laqab yoki indikatorlar orqali uning oilaviy kelib chiqishi, diniy ta'lim darajasi yoki siyosiy mavqesi haqida xulosa chiqarish mumkin edi. Shu bois, Temuriylar davri antroponimiyasi nafaqat shaxsiy identifikatsiya vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy tuzilishini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida qaralgan. Shuningdek, o'sha davr matnlarida, tarixiy asarlar va badiiy manbalarda antroponimik ma'lumotlar shaxslararo muloqot va nutq madaniyatini o'rganish uchun ham qimmatli materiallarni tashkil qiladi. Tarixiy shaxslarning ismlari orqali ularning jamiyatdagi mavqei, obro'si, ilm-fan va madaniyatga qo'shgan hisssasi, shuningdek, ijtimoiy qatlamlararo munosabatlar haqida ma'lumot olish mumkin. Shu bilan birga, antroponimiyaning o'rganish orqali Temuriylar davri jamiyatining axloqiy qadriyatlari, odatlari va muloqot etiketlari haqida ham nazariy xulosalar chiqarish mumkin.

Shuning uchun, Temuriylar davri antroponimiyasi nafaqat lingvistik jihatdan balki sotsiopragsmatik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham chuqur o'rganishni talab qiluvchi mavzu hisoblanadi. Ushbu maqola va tadqiqot mazkur davrning antroponimik tizimini, ularning sotsiopragsmatik funksiyalarini, shuningdek, badiiy va tarixiy manbalardagi ifodalari orqali jamiyat ijtimoiy tuzilishi va madaniyati bilan bog'liqligini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Temuriylar davri antroponimiyasining asosiy xususiyatlari shundan iboratki, temuriylar davrida shaxs ismlari, ya'ni antroponimlar, nafaqat shaxsni identifikatsiya qilish vositasi bo'lib xizmat qilgan, balki ijtimoiy mavqe, oilaviy kelib chiqish, diniy e'tiqod va etnik manbani aks ettiruvchi muhim sotsiopragsmatik element sifatida ham ishlatilgan. Ushbu davr antroponimiyasining tarkibi va tizimi o'zining qat'iy strukturasi ega bo'lib, quyidagi asosiy qatlamlardan iborat bo'lgan:

Ism (ism-i asl) – shaxsning asosiy nomi bo'lib, inson shaxsiyatini belgilashda birinchi darajali vosita hisoblanadi. Masalan, Temur, Ulug'bek, Shohrux kabi ismlar o'z egalari orqali tarixiy shaxsiyat va ularning jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi. Shu bilan birga, ismning ma'nosi va semantik komponenti shaxsning xarakteri, oilaviy an'analari yoki diniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kufiylar (laqablar) – shaxsning ijtimoiy mavqeini, kasbini, fazilatini yoki qobiliyatini ko'rsatadigan qo'shimcha nomlardir. Masalan, Amir (boshliq, hukmdor), Voiz (diniy notiq), Mirzo (shohzoda, nufuzli shaxs) kabi laqablar, jamiyatdagi mavqe va obro'ni aniqlashga xizmat qilgan. Laqablar shuningdek, nutq madaniyati va voizlarning yoki rasmiy shaxslarning ta'lim-tarbiyasi darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin edi.

Patronimiklar – ota yoki naslni ifodalovchi qo'shimchalar bo'lib, shaxsning genealogik kelib chiqishini ko'rsatadi. Masalan, Temur ibn Taragay yoki Ulug'bek ibn Shohrux kabi ifodalar shaxsning oilaviy va siyosiy aloqalarini aniqlashda muhimdir. Patronimiklar nafaqat oilaviy merosni, balki ijtimoiy va siyosiy mavqe bilan bog'liq naslni ham aks ettiradi.

Tug'ilgan joy va hudud ko'rsatkichi – shaxsning geografik kelib chiqishini aks ettiruvchi element bo'lib, masalan, Samarqandiy, Buxoriy, Hiroti kabi nisbatlar o'sha shaxsning yashash joyi, mintaqaviy aloqalari va madaniy muhitini aniqlash imkonini beradi. Bu ko'rsatkichlar orqali shaxsning mintaqaviy identifikatsiyasi va uning jamiyatdagi aloqalari haqida ma'lumot olish mumkin.

Mazkur qatlamlar birgalikda shaxsni jamiyat kontekstida aniqlash, uning ijtimoiy mavqeini belgilash va muloqot jarayonida qanday maqomda bo'lishini tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, Temuriylar davri antroponimiyasi boshqa davrlar bilan solishtirganda o'zining murakkab struktura va sotsiopragsmatik funksiyalar bilan ajralib turadi.

Nazariy nuqtai nazardan, antroponimiyani tahlil qilish orqali shaxslararo muloqot, ijtimoiy stratifikatsiya va madaniy qadriyatlar haqida chuqur bilim olish mumkin. Masalan, laqablar va patronimiklar orqali jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, obro' va mavqega ko'ra muloqot uslubi, shuningdek, madaniy va diniy qadriyatlar qanday aks ettirilgani aniqlanadi. Shu bilan birga, geografik nisbatlar shaxsning regional identifikatsiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi va tarixiy manbalarni o'rganishda qo'llaniladi. Demak, Temuriylar davri antroponimiyasi nafaqat shaxsni nomlash vositasi, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstni aks ettiruvchi murakkab sotsiopragsmatik tizim sifatida qaraladi. Ushbu tizimni o'rganish, o'sha davr jamiyati va uning ijtimoiy qatlamlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Temuriylar davri antroponimiyasi nafaqat shaxsni identifikatsiya qilish vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va muloqot jarayonlarida muhim sotsiopragsmatik rol o'ynagan. Antroponimlarning sotsiopragsmatik funksiyalari quyidagi jihatlarida namoyon bo'lgan:

Ijtimoiy mavqeni ko'rsatish. Shaxsning jamiyatdagi lavozimi va maqomini aniqlashda ismlarga qo'shimcha qilinadigan laqablar yoki titullar muhim vosita bo'lgan. Masalan, "Amir Temur" iborasidagi "Amir" so'zi shaxsning siyosiy va harbiy lavozimini bildiradi. Shu bilan birga, "Mirzo", "Sahibqiron" kabi laqablar shaxsning obro'si, unvoni va ijtimoiy mavqeini ifodalaydi. Bu funksiyani sotsiopragsmatik nuqtai nazardan tahlil qilganda, ism va laqab orqali muloqot jarayonida tinglovchiga shaxsning mavqeini oldindan anglash imkonini berishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Nasl va merosni aks ettirish. Patronimiklar orqali shaxsning oilaviy kelib chiqishi va nasl zanjiri aniqlanadi. Masalan, Temur ibn Taragay yoki Ulug'bek ibn Shahrukh kabi ifodalar shaxsning genealogik manbasini, oilaviy obro'si va merosini ko'rsatadi. Sotsiopragsmatik jihatdan, bunday ma'lumotlar jamiyatda mavqe va hurmatni belgilashda, shaxslararo muloqotda ijtimoiy aloqalarni tartibga solishda xizmat qilgan.

Madaniy va diniy e'tiqodni ifodalash. Ba'zi laqablar shaxsning diniy bilim darajasini yoki diniy faoliyatini ko'rsatgan. Masalan, Voiz, Hojib, Allom kabi laqablar shaxsning diniy yoki ilmiy mavqeini belgilab bergan. Ushbu sotsiopragsmatik funksiya orqali muloqot jarayonida shaxsning bilim, e'tiqod va madaniy qadriyatlarini tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan.

Hududiy identifikatsiya. Shaxsning geografik kelib chiqishi antroponim orqali aniqlanadi. Masalan, Samarqandiy, Buxoriy, Hiroti kabi nisbatlar shaxsning mintaqaviy identifikatsiyasini belgilaydi va uning jamiyatdagi aloqalari, etnik va madaniy kelib chiqishi haqida ma'lumot beradi. Sotsiopragsmatik jihatdan bu, shaxslararo muloqotda joylashuv va hududiy obro'ni hisobga olish imkonini yaratgan.

Shuningdek, antroponimiyaning sotsiopragsmatik funksiyasi shaxsning jamiyatdagi obro'si, maqomi va muloqotdagi mavqeini belgilash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Tarixiy manbalarni tahlil qilganda, laqablar va patronimiklar orqali shaxsning lavozimi, oilaviy kelib chiqishi va diniy yoki ilmiy mavqe haqida aniq tushuncha hosil qilish mumkin.

Natijada, Temuriylar davri antroponimiyasi nafaqat shaxsni nomlash tizimi, balki ijtimoiy va madaniy kontekstni aks ettiruvchi murakkab sotsiopragsmatik vosita sifatida qaraladi. Bu tizim orqali o'sha davr jamiyati, uning qatlamlari va muloqot madaniyati haqida chuqur nazariy va amaliy bilim olish mumkin.

Temuriylar davri antroponimiyasi ko'p qirrali ijtimoiy, madaniy va diniy omillar ta'sirida shakllandi. Bu omillar shaxs nomlarining tanlanishi, shakllanishi va jamiyatda qo'llanishida bevosita o'z aksini topdi.

Temuriylar davrida shaxs nomlari ularning ijtimoiy qatlamiga qarab farqlangan. Davlat arboblari va hukmdorlarning ismlarida qudrat, shon-shuhrat ifodalangan bo'lsa, olimlar va diniy arboblarning ismlarida diniy-ma'rifiy ma'no ustun bo'lgan. Misollar:

Amir Temur – "Amir" unvoni uning siyosiy va harbiy rahbarlik mavqeini ko'rsatadi.

Ulug'bek Mirzo – ilm-fan homiysi sifatida uning ismida "Ulug'" (buyuk) va "Mirzo" (shahzoda) komponentlari ijtimoiy mavqe bilan chambarchas bog'liq.

Qozizoda Rumi – fiqh va matematika bilimdoni bo'lib, “Qozizoda” laqabi uning diniy-huquqiy mavqeini ko'rsatadi.

Ali Qushchi Samarqandiy – “Qushchi” nisbatidan ma'lum kasb-hunar, ya'ni qushlarga g'amxo'rlik qiluvchi naslga mansubligi anglashiladi. Temuriylar davrida fors, arab va turkiy madaniyat unsurlari birlashib, shaxs ismlariga ham ta'sir ko'rsatgan. Ismlar ko'pincha uch madaniyat elementlari sintezida shakllangan. Misollar:

Shahrulkh – forscha kelib chiqishga ega bo'lib, “shah” (podsho) va “rux” (ruh, jon) birikmasidan tashkil topgan.

Abdurahmon Jomiy – arabcha “Abdurahmon” (“Rahmonning quli”) va forscha hududiy nisba “Jomiy” uyg'unligidan iborat.

Husayn Boyqaro – arabcha “Husayn” diniy asosli ism, “Boyqaro” esa turkiy kelib chiqishga ega bo'lib, naslning qudratini bildiradi.

Islom dini Temuriylar davri jamiyatining asosiy ideologik negizi bo'lib, bu shaxs ismlarida ham ko'rindi. Arabcha diniy konnotatsiyali ismlar keng qo'llangan. Misollar:

Abdullatif ibn Ulug'bek – arabcha “Abdullatif” (“Latifning quli”) ismi diniy e'tiqodga ishora qiladi.

Muhammad Tarag'ay – Payg'ambar ismini o'z ichiga olishi ota-onaning farzandga diniy baraka tilashini bildiradi.

Sayyid Sharif Jurjoniy – “Sayyid” unvoni Payg'ambar avlodiga mansublikni ko'rsatadi, diniy mavqeni kuchaytiradi.

Davrning siyosiy va harbiy voqealari ham shaxs ismlarida o'z aksini topgan. Ismlarda kuch, jasorat, mustaqillik kabi tushunchalar ifodalangan. Misollar:

Temur (Temir) – turkiy “temir” so'zidan olingan bo'lib, kuch-qudrat, mustahkamlik timsoli sifatida tanlangan. Bu ism davrning harbiy ruhini aks ettiradi.

Boyqaro – turkiycha “boy” (badavlat) va “qaro” (qudratli, himoyachi) elementlaridan tashkil topib, sulolaning siyosiy qudratini ifodalagan.

Shohruh – hukmdor ismi sifatida “shoh” (podsho) va “ruh” (jon) birikmasi davrning siyosiy kuchini aks ettirgan.

Temuriylar davrida shaxs ismlari jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy aloqalari, diniy e'tiqodlari va tarixiy voqealari bilan bevosita bog'liq holda shakllandi. Bu antroponimik tizim nafaqat shaxsiy identifikatsiya vositasi, balki davrning sotsiopragmatik belgisi bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, ismlar o'z davrining ijtimoiy-madaniy “kodlari”ni o'zida mujassam etgan holda, tarixiy merosni o'rganishda bebaho manba hisoblanadi.

Temuriylar davri antroponimiyasi nafaqat tarixiy hujjatlar va rasmiy yozishmalarda, balki badiiy manbalarda ham keng qo'llanilgan bo'lib, u o'z davrining ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Badiiy matnlarda qo'llanilgan shaxs ismlari o'quvchi va tinglovchida turli pragmatik va sotsiopragmatik ta'sir uyg'otadi.

Temuriylar davriga oid tarixiy-badiiy asarlarda buyuk shaxslar ismlarining tilga olinishi bevosita hurmat va ehtiromni bildirgan. Masalan, “Amir Temur” ismi oddiy “Temur” shaklida emas, balki “Amir” unvoni bilan birgalikda qo'llanib, nafaqat shaxsning kimligini, balki uning siyosiy va ijtimoiy mavqeini ham namoyon qiladi. Bu esa o'quvchida obro'-e'tibor va ulug'lik tuyg'usini uyg'otadi.

Badiiy matnlarda ismlarga qo'shilgan laqab, unvon va nisbatlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi. Masalan, “Mirzo Ulug'bek” shaklida ishlatilgan ismda “Mirzo” komponenti shahzodalikka ishora qiladi, “Ulug'bek” esa buyuklik va qudratni ifodalaydi. Shu tariqa, ism nafaqat identifikatsiya vositasi, balki sotsiopragmatik kuchga ega bo'lgan ramz sifatida ham xizmat qiladi.

Antroponimlar yordamida o'sha davr qahramonlarining ijtimoiy qatlamini, etnik kelib chiqishini va madaniy muhitini aniqlash mumkin. Masalan, “Alisher Navoiy” ismida “Navoiy” nisbatining mavjudligi uning Hirotning Navo viloyatiga mansubligini bildiradi. Bu hol badiiy matnlarni tahlil qilishda qahramonning madaniy-mintaqaviy kontekstini aniqlashga imkon beradi.

Badiiy matnlarda Temuriylar davri qahramonlari tilga olinganda, ko'pincha davrning tarixiy voqealari va ijtimoiy munosabatlari ham o'z aksini topadi. Masalan, “Sulton Husayn Boyqaro” ismidagi “Sulton” unvoni uning siyosiy mavqeini ifodalaydi, “Boyqaro” esa sulolaning qudrati va boyligini ramziy tarzda aks ettiradi.

Ismlar ko'pincha badiiy asarlarda estetik maqsadda ham qo'llanadi. Ularning talaffuzi, ohangdorligi va tarixiy konnotatsiyasi matnga emotsional kuch beradi. Masalan, “Shohruh” yoki “Jahongir” kabi ismlar o'quvchida bevosita ulug'vorlik va keng dunyoqarash tasavvurlarini uyg'otadi.

Xulosa. Demak, badiiy matnlardagi antroponimlar shaxs identifikatsiyasidan tashqari, pragmatik (hurmat, kuch, mavqe ifodalash) va sotsiopragmatik (ijtimoiy qatlam, madaniy va hududiy kontekstni ko'rsatish) funksiyalarni bajaradi. Temuriylar davri adabiy merosini tahlil qilishda ismlar orqali davrning ijtimoiy tuzilishi, madaniy aloqalari va tarixiy voqealari haqida muhim ma'lumotlar olish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirzo Ulug'bek. Ziji jadidi Ko'ragoniy. – Toshkent: Fan, 1994.
2. Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
4. Ziyo A. Temuriylar davri madaniyati va ilm-fani. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
5. Axmedov B. Amir Temur va uning davlati. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
6. Raxmonov R. O'zbek antroponimikasining tarixiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
8. Boeschoten H. Names and Identity in Central Asia. – Leiden University Press, 2001.
9. Qosimjonov S. O'zbek tilida antroponimik tizim. – Toshkent: Fan, 2008.
10. Bosworth C.E. The Timurids: Dynastic and Cultural History. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996.